

**DAVLAT KADASTRLARI YAGONA TIZIMIDA O‘SIMLIKLAR DUNYOSI
OBYEKTлари DA VLAT KADASTRINING MAZMUNI**

Sattorov Shahzod Yarashovich

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti

Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrası dotsent v.b.

E-mail: shsattorov1993@mail.ru

Ismatov Temurbek Akbar o‘g‘li

Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrası doktoranti

Ochilov Askar Boymurodovich

Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari kafedrası tadqiqotchisi

Jo‘raqulov Fazliddin Faxriddinovich

Geodeziya va geoinformatika ta‘lim yo‘nalishi talabasi.

Teshayev Hasan Murtazoyevich

Geodeziya va geoinformatika ta‘lim yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrı mazmuni, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risidagi muvofiq o‘simliklar dunyosi obyektlarining davlat muhofazasini hamda ulardan oqılona foydalanishni ta‘minlashni mazmun mohoyati to‘g‘risida.

Kalit so‘zlar: O‘simlik, obyekt, kadastr, miqdor, sifat, integratsion tizimlar, yer munosabatlari, Yer hisobi, elektron dastur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020 yil 7 sentabr PF-6061-son «Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4819-sonli qarorida respublikamizda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat xokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, Davlat kadastrlari palatasi ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarning davlat reestrini, davlat yer kadastrı, binolar va inshootlar davlat kadastrini hamda Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish vazifalari yuklatilgan.

O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrı «O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida», «Davlat kadastrlari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, shuningdek “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida Qaror”ga muvofiq o‘simliklar

dunyosi obyektlarining davlat muhofazasini hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida yuritiladi.

O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini o'zida o'simliklar dunyosi obyektlarining jug'rofiy joylashishi, huquqiy maqomi, miqdoriy, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risidagi yangilab turiladigan ma'lumotlar va hujjatlar tizimini ifodalaydi.

O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish uchun quyidagi asosiy prinsiplar asos qilib olingan:

- Respublikaning butun hududida o'simliklar dunyosining barcha obyektlarini o'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini bilan qamrab olish;

- Kadastr axborotini shakllantirishning yagona metodologiyasi;

- O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritishni markazlashtirilgan tarzda boshqarish;

- Davlat kadastrlari yagona tizimi talablarini ta'minlash;

- Kadastr axborotining ishonchliligi hamda uni to'ldirish va yangilab borishning uzluksizligi;

- Kadastr axborotidan foydalanish mumkinligi.

O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini yuritish o'simliklar dunyosi obyektlaridan foydalanish huquqini va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni, o'simliklar dunyosi obyektlarini miqdoriy va sifat tavsiflarini hisobga olishni, o'simliklar dunyosi obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholashni, kadastr axborotini turkumlashtirish, saqlash va yangilashni, o'simliklar dunyosi obyektlarining holati to'g'risidagi hisobotlarni tuzishni, Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborotni taqdim etishni, foydalanuvchilarni kadastr axboroti bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi o'simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida quyidagi guruhlariga birlashtirilgan yovvoyi o'simliklarning har bir turi bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'ladi:

➤ yovvoyi holda o'sadigan dorivor va manzarali, shuningdek, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan o'simliklar;

➤ texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi o'simliklar;

➤ tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o'simliklar;

➤ yovvoyi o'simliklarning kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan turlari.

Kadastr obyektlarining har bir guruhida quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi:

➤ obyektlar guruhlarining maqomi;

➤ o'simliklar dunyosi (yaylovlarning turlari);

➤ keng tarqalishi (hududiy taqsimlanishi);

➤ mahsuldorligi;

➤ iqtisodiy baholanishi;

➤ foydalanilishi.

O‘simliklar dunyosi obyektlari, mulkchilik obyektlari va subyektlari, o‘simliklar dunyosi obyektlariga egalik qilish,

➤ ulardan foydalanish va ular ijarasi, ulardan maqsadli foydalanish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisobini hamda ulardan foydalanish rejimini yuritadi;

➤ o‘simliklar dunyosi obyektlari ro‘yxatini tuzadi;

➤ o‘simliklar dunyosi obyektlari bo‘yicha kadastr daftarini yuritadi;

➤ o‘simliklar dunyosi obyektlarining joylashishi sxemasini tuzadi.

O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrining mazmuni - O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrida Respublika hududidagi barcha o‘simliklar dunyosi obyektlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘ladi.

Hisobga olish va baholash axboroti birgalikda o‘simliklar dunyosi obyektlari bo‘yicha kadastr axborotini tashkil etadi, ushbu axborot alifboli-raqamli (matnli, jadvallar, vedomostlar) va chiziqli (rejalar, sxemalar, kesimlar va o‘lchamlar) shakllarda qog‘ozda, magnit va boshqa manbalarda taqdim etiladi.

O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini o‘simliklar dunyosi obyektlarining jug‘rofiy joylashishi haqidagi ma‘lumotlarni, o‘simliklar dunyosi obyektlarining miqdoriy va sifat tavsiflari hisobini va miqdoriy va qiymat jihatidan hisobini o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida quyidagi guruhlariga birlashtirilgan yovvoyi o‘simliklarning har bir turi bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud bo‘ladi:

➤ yovvoyi holda o‘sadigan dorivor va manzarali, shuningdek, oziq-ovqat sifatida foydalaniladigan o‘simliklar;

➤ texnik maqsadlarda foydalaniladigan yovvoyi o‘simliklar;

➤ tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o‘simliklar;

➤ yovvoyi o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlari.

Kadastr obyektlarining har bir guruhida quyidagi ma‘lumotlar mavjud bo‘ladi:

➤ obyektlar guruhlarining maqomi;

➤ o‘simliklar dunyosi (yaylovlarning turlari);

➤ keng tarqalishi (hududiy taqsimlanishi);

➤ mahsuldorligi;

➤ iqtisodiy baholanishi;

➤ foydalanilishi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan “O‘zbekiston oliy o‘simliklarining ta‘rifnomasi”, shuningdek dalani tekshirish ma‘lumotlari o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrini tuzish uchun axborot manbai hisoblanadi.

O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida axboroti uzluksiz yangilashini ta’minlovchi axborotning asosiy va joriy turlarni o‘z ichiga oladi.

O‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrining asosiy (birlamchi) turini yuritishda obyektlar birlamchi ro‘yxatdan o‘tkaziladi (xatlanadi). Joriy turda asosiy tur o‘tkazilgandan keyin yuz bergan barcha keyingi o‘zgartirishlar qayd etiladi va kadastrga kiritiladi.

Ro‘yxatdan o‘tkazish, hisobga olish va baholash axboroti o‘simliklar dunyosi to‘g‘risidagi jami kadastr axborotini tashkil etadi. Ushbu axborot alifbo-raqamli (matnlar, jadvallar) va chiziqli (xaritalar, sxemalar) shakllarida, an’anaviy va avtomatlashtirilgan variantlarda taqdim etiladi.

O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi tomonidan quyidagi ma’muriy-hududiy darajalarda:

- birlamchi darajada o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida subyektlarining vakolatli shaxslari tomonidan;
- mintaqaviy darajada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasining kadastr xizmati va tabiatni muhofaza qilish viloyat qo‘mitalarining vakolatli shaxslari tomonidan;
- Respublika darajasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasining kadastr xizmati tomonidan yuritiladi.

O‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida subyektlari darajasida vakolatli shaxslar: yovvoyi holda o‘suvi o‘simliklarni ro‘yxatga oladi, ularning soni, sifati va bahosi to‘g‘risidagi axborotni yig‘adi, kadastr kitobini yuritadi, o‘simliklarning turlar bo‘yicha tarqalishining kadastr rejasini tuzadi va mintaqaviy darajada zarur kadastr axborotini beradi.

Mintaqaviy darajada vakolatli shaxslar kadastrini yuritishda subyektlarga uslubiy yordam ko‘rsatadi, tushayotgan axborotni tahlil qiladi, taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligini baholaydi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha yovvoyi o‘simliklarning ro‘yxatini va yovvoyi o‘simliklarning turlar bo‘yicha joylashishi hududiy sxemalarini tuzadi, hisobotlar tuzadi hamda ularni har yili 1-martgacha belgilangan shaklda Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasiga taqdim etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasining kadastr xizmati respublika darajasida:

- o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat kadastrida yuritilishini muvofiqlashtiradi;
- me’yoriy-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi;
- kadastr yuritilishi ustidan nazorat qiladi;
- viloyat kadastr hisobotlarini tizimlashtiradi;
- kadastr xizmatlarini moddiy-texnik ta’minlaydi;

- o‘simlik dunyosi obyektlari davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqadi;
- manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr materiallaridan foydalanishi tartibi va shartlarini belgilaydi;
- zarur kadastr axborotini Davlat kadastrlarining yagona tizimiga beradi.

O‘simliklar dunyosining ko‘chmas obyektlariga huquqlar yer uchastkalari muhofaza zonalarining naturada belgilangan va mustahkamlangan chegaralari mavjud bo‘lgan taqdirda binolar va inshootlarning davlat yer kadastrini va davlat kadastrini olib boruvchi organlarda kadastr ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Yer uchastkasi chegaralarining burilish nuqtalari qoziqli belgilari yo‘qolgan taqdirda ular o‘sha joyda yer uchastkasi chegaralarining burilish nuqtalari o‘rnatilgan holda dala geodeziya o‘lchamlari o‘tkazilgan yoki tegishli ko‘lamdagi fotografiya ma’lumotidan foydalanilgan holda yer uchastkalari ajratish materiallari bo‘yicha tiklanadi.

O‘simliklar dunyosi obyektlari soni ularning amaldagi holati va foydalanilishiga ko‘ra hisobga olinadi.

O‘simliklar dunyosi obyektlarini baholash, shu jumladan qiymatini baholash ulardan samarali foydalanishni belgilash, yetkazilgan zarar miqdorini aniqlash, sug‘urta, ijara to‘lovi stavkalari, ularni ta‘mirlash, konservatsiya qilish xarajatlarini qoplash, joriy tuzatishni olib borish uchun o‘tkaziladi.

O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrini kadastr axborotining uzluksiz yangilanishini ta‘minlovchi asosiy va joriy turlarni o‘z ichiga oladi.

O‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastrining asosiy turini yuritishda o‘simliklar dunyosi obyektlari barcha turlarining birlamchi hisobi amalga oshiriladi, ularning soni ko‘rsatiladi va naturada yer uchastkalari chegaralari belgilanadi.

O‘simliklar dunyosi obyektiga kadastr hujjatlari: o‘simliklar dunyosi obyektiga mulkchilik huquqini va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlardan, o‘simliklar dunyosi obyektiga kadastr ishidan, kadastr xaritasidan, kadastr daftaridan va o‘simliklar dunyosi obyektining holati to‘g‘risidagi hisobotdan iborat bo‘ladi.

O‘simliklar dunyosi obyektiga kadastr ishi kadastr obyektiga huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan pasport, hujjatlar, materiallar va kadastr suratga olish hujjatlari, texnik xatlash va pasportlashtirish, maxsus tekshirish va qidiruvlar, kadastr obyektining sifat va qiymat bahosidan iborat bo‘ladi.

O‘simliklar dunyosi obyektining kadastr xaritasi kadastr obyektlarining joylashgan joyini, ularning chegaralarini, muhofaza zonalarini, baholash, miqdoriy va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi chiziqli hujjat hisoblanadi hamda qog‘ozda, magnit va boshqa manbalarda tuziladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Global Iqlim O'zgarishi O'zbekistonning Barqaror Rivojlanishiga Salbiy Ta'siri. SS Yarashovich, AJ Sayitkulovich, AI Hasan o'g'li... - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ..., 2023
- [2] Sattorov Sh Y, Ahmadov S O, Akhtamov S A 2021 Mechanisms of rice growing and rice development in Uzbekistan online-conferences 5 183
- [3] Sattorov S Y 2020 Use of aerocosmic methods and gis programs in construction of space data models of pastural land Current scientific research in the modern world
- [4] Abduloev A M 2020 The use of advanced technologies in geodetic and geoinformatics Journal agro processing
- [5] Sattorov S. Y., Muhammadov Q., Bobojonov S. QURILISH JARAYONIDA ELEKTRON TAXEOMETRLARLARNI O 'RNI //Euro-Asia Conferences. – 2021. – T. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [6] Сатторов Ш.Я, Муҳаммадов Қ., Бобожонов С. ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИДА ЭЛЕКТРОН ТАХЕОМЕТРЛАРЛАРНИ О ЁРНИ //Эуро-Асиа Сонференсес. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 235-237.
- [7] Сатторов Ш. Я. и др. USE OF AEROCOSMIC METHODS AND GIS PROGRAMS IN CONSTRUCTION OF SPACE DATA MODELS OF PASTURAL LAND //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2020. – №. 5-4. – С. 16-22.
- [8] Сатторов Ш. Я. ЯЙЛОВ ЕРЛАРИНИНГ ДЕГРАДАЦИЯ ОМИЛЛАРИ //ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ. – 2020. – №. SPECIAL ISSUE.
- [9] Абдуллоев, А. М. (2020). ГЕОДЕЗИК ВА ГЕОИНФОРМАТИК ИШЛАРНИ БАЖАРИШДА ИЛФОР ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
- [10] Muzaffarovich, Abdulloyev Ashraf. "USE OF ADVANCED TECHNOLOGIES IN GEODESIC AND GEOFORMATIC WORK." Агропроцессинг SPECIAL (2020).
- [11] Ашраф, Мудасир, Ясс Худхейр Салал и С.М. Абдуллаев. «Интеллектуальный анализ образовательных данных с использованием базового (индивидуального) и ансамблевого подходов к обучению для прогнозирования успеваемости учащихся». Наука о данных . Спрингер, Сингапур, 2021. 15–24.
- [12] Geoportal visualization of state cadastre objects:(a case study from Uzbekistan) A Inamov, S Sattorov, A Dadabayev, A Narziyev - IOP Conference Series: Earth and Environmental , 2022
- [13] Conventional and current approaches of urban mapping and geodetic base formulation for establishing demographic processes database: Tashkent, Uzbekistan S Abdurakhmonov, M Khamidova, Y Romanyuk - E3S Web of Conferences, 2024
- [14] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KARTAGA OLI SHDA ZAMONAVIY METOD VA TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 105-109.
- [15] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. GEOMA'LUMOTLAR BAZASIDAGI MAVZULI QATLAMLARNING ATRIBUTIV JADVALLARINI ALGORITMGA BOG 'LASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 99-104.
- [16] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. AEROKOSMIK METOD YORDAMIDA MELIORATIV MONITORING QILISH VA KARTASINI ISHLAB CHI QISH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 110-115.
- [17] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. DALA TADQIQOT NATIJALARINI GEOMA'LUMOTLAR BAZASIGA INTEGRATSIYALASH //Ustozlar uchun. – 2024. – Т. 58. – №. 2. – С. 93-98.
- [18] Yarashovich S. S., Faxriddinovich J. F. KOSMOSURATLARDAN FOYDALANIB ELEKTRON RAQAMLI KARTALARNI YANGILASH //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 54. – №. 4. – С. 14-18.